

**“XALQ SO‘ZI” GAZETASI SAHIFALARIDA
O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON MUNOSABATLARI SHARHI
(1991-2022-YILLAR)**

Subxonova Niso Axmadovna,

Buxoro davlat universiteti I bosqich magistrant

subxonova.niso@gmail.com

O.Klichev, ilmiy rahbar: t.f.f.d, (PHD)

***Annotatsiya:** Maqolada “Xalq so‘zi” gazetasi sahifalarida yoritilgan O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar tarixi, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** hamkorlik, sammit, rasmiy tashrif, tashqi siyosat, Abadiy do‘stlik shartnomasi, siyosiy jarayonlar, delegatsiya.*

***Аннотация:** В статье на основе объективности анализируется история связей между Узбекистаном и Казахстаном в политической, торгово-экономической и культурно-гуманитарной сферах, приоритетные направления сотрудничества, достигнутые успехи, освещенные на страницах газеты Народное слово.*

***Ключевые слова:** сотрудничество, саммит, официальный визит, внешняя политика, договор о вечной дружбе, политические процессы, делегация.*

***Abstract:** On the basis of objectivity, the article analyzes the history of relations between Uzbekistan and Kazakhstan in the political, trade, economic, cultural and humanitarian spheres, priority areas of cooperation, progress achieved, highlighted on the pages of the newspaper People Word.*

***Key words:** cooperation, summit, official visit, foreign policy, Treaty of Eternal Friendship, political processes, delegation.*

KIRISH.

Markaziy Osiyo – bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan mintaqadir. Ushbu mintaqadagi O‘zbekiston va Qozog‘iston yaqin qardosh, asrlar davomida sinalgan sheriklardir. O‘zbek va qozoq xalqlari azaldan yonma-yon yashagan, qavmu-qarindosh bo‘lgan. O‘zbekiston va Qozog‘iston mustaqil taraqqiyot yo‘lini bir davrda boshlagan. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik yuksak ishonch va o‘zaro hurmat asosida rivojlanmoqda. Iqtisodiyotni qayta tiklash va rivojlantirish yo‘lida bir-biriga yelkadosh bo‘lib kelmoqda. Turli darajadagi aloqalar faollashgani mamlakatlarimizning ko‘p qirrali munosabatlarni kengaytirishdan manfaatdor ekanining tasdig‘idir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik va kollektiv xavfsizlik masalalari va mintaqadagi integratsiya jarayonlarining holati haqida “Hamdo‘stlik davlatlari boshliqlarining uchrashuvi” (1993-yil 20-aprel 78-son), M.Sharifning “Taraqqiyotga eltuvchi yo‘l hamjihatlikda” (1995-yil 19-dekabr 242-son), S.Zufarovning “Azaliy do‘stlik – abadiy do‘stlik” (1997-yil 11-yanvar 8-son) nomli maqolalaridan bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston davlati bilan birga jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, tashqi siyosatini amalga oshirish munosabatlari sharhlangan maqolalari ham “Xalq so‘zi” gazetasidan o‘rin olgan bo‘lib, A.Boboyevning “Prezident Ashgabadga jo‘nab ketdi. Eko: Ashgabad uchrashuvi” (1997-yil 14-may 104-105-son) nomli sarlavha ostidagi maqolada tanishishimiz mumkin.

G.Nurjanovanning “O‘zbekiston va Qozog‘iston – Markaziy Osiyoning lokomotivlari” (2017-yil 18-mart 55-son), Z.Jo‘rabekovning “MDH ning Ashxobod sammiti” (2019-yil 12-oktabr 212-son), nomli maqolalarida O‘zbekistonning Qozog‘iston davlati bilan ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki, madaniyati hamda xalqlarning azaliy do‘stligi, abadiy aloqalari tadqiq etilganligining guvohi bo‘lamiz.

NATIJALAR.

Ushbu maqolani yozish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

- O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlari 1991-yildan buyon izchil ravishda rivojlanib kelishi;
- Ikkala davlat o‘rtasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar har qanday vaziyatda ham yuksalishi;
- Jahon hamjamiyatiga molik bo‘lgan masalalar hamfikrlilikda hal etilishi.

MUHOKAMA.

Markaziy Osiyo – bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan mintaqadir.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida sodir bo‘lgan dunyo hamjamiyatiga molik tub o‘zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasini jahon xalqlari tarixida o‘rni va rolining oshishiga olib keldi. So‘nggi uch yil ichida O‘zbekistonning mintaqaviy sa’y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu vaqt ichida mintaqamizda do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hamkorlik muhitini yaratishga erishildi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining biri sanalgan Qozog‘iston Respublikasi bilan davlatimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar zanjiri hali hanuz davom etmoqda. Bu borada bizga O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston hamkorlik aloqalarining rivojlanishini “Xalq so‘zi” gazetasi nashrlari tahlili yaqindan yordam beradi. “Xalq so‘zi” gazetasi bu borada hisoblanib, buning dalili sifatida O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mintaqaviy iqtisodiy tashkilot 1993-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida[1], 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risida bitim imzolandi. Integratsiya jarayonlariga sharoitlar yaratish maqsadlarida 1994-yil 10-yanvarda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to‘g‘risida Shartnoma tuzildi[2].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona

tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiya hamda 2018-yilning 15-mart kuni Ostona Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi [3]. Aynan shu uchrashuvlarning keyingi yillarda ham davom etdi va davlatlarining mintaqaviy hamkorligining rivojlanib borishiga asos bo‘ldi, deyish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligidagi keyingi muhim qadam 2018-yilning 15-martida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Samarqanddagi tashabbusiga ko‘ra joriy etilgan bunday uchrashuv N.Nazarboyevning taklifiga ko‘ra Qozog‘istonda bo‘lib o‘tdi[4].

Gazetada shu bilan bir qatorda iqtisodning turli sohalari jumladan, Qozog‘istonda avtomobillarni yig‘ish qo‘shma korxonasi, to‘qimachilik fabrikasi faoliyat yuritayotganligi, maishiy texnika ishlab chiqarish zavodi ochilishi ko‘zlanganligi, bundan tashqari, ishlov berish sanoati, qurilish, avtomobillar savdosi va servis xizmati sohaslarida o‘zbek kapitali ishtirokidagi 1200 dan oshiq kichik biznes korxonasi ishlamoqda, deya xabar beradi “Xalq so‘zi” gazetasining 204-soni 2020-yil 26-sentabrda bosilib chiqqan maqolasida[5].

Davlatimiz Qozog‘iston Respublikasi bilan nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy balki madaniy sohada ham hamkorlik aloqalarini rivojlantirgan. “Xalq so‘zi” gazetasining nashrlarida ayniqsa, keyingi chorak asr mobaynida davlatlarning do‘stlik va hamkorlik munosabatlari mustahkamlanganligi ta’kidlab o‘tiladi. Ikki davlatning madaniy aloqalari keng qanot yoydi, yanada ravnaq topdi. 2018-yilning Qozog‘iston Respublikasida “O‘zbekiston yili” deb e’lon qilingani ulkan tarixiy voqeadir[6]. Bu Qozog‘iston davlatining, qo‘shni, qardosh xalqning bizga hurmat-ehtiromi ramzidir. 2018-yil davomida Qozog‘istonda O‘zbekiston degan so‘z baland pardalarda kuylandi, madh etildi.

Qozog‘istonda “2018 yil – O‘zbekiston yili” dasturi munosabati bilan madaniyat, san’at, adabiyot sohaslarida bajarilishi rejalashtirilayotgan bir qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar, xayrli ishlar haqida ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Jumladan, 2018-yilning

birinchi choragida Ostona shahrida o'zbek hunarmandlarining 400 dan ortiq mahsulotini aks ettirgan ko'rgazma namoyish etiladi. Qozog'iston poytaxtida bo'lib o'tgan O'zbekiston yiliga bag'ishlangan tantanali marosim – katta kontsert dasturi o'zbek madaniyati va san'atining naqadar boy va betakrorligini tarannum etishi shubhasiz.

XULOSA.

Xulosa o'rnida qayd etish mumkinki, O'zbekiston yuritayotgan ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlik siyosati Qozog'iston davlatida qo'llab-quvvatlanmoqda. Qo'shni davlat sifatida Qozog'iston O'zbekistonning ishonch va yaqin qo'shnilik muhitini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholamoqda. Bu esa hamkor davlatlar iqtisodiyotlarining tezkor taraqqiyotiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Samadov A. O'zbekiston - Qozog'iston: Azaliy do'stlik va strategik sherikchilikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi. Xalq so'zi//2018-yil 24-mart. 58-son (6752), 1-b.*
2. *O'zA. "Qardoshlar uchrashuvi" Xalq so'zi //1994-yil 6-aprel. 18-son (358), 1-3-b.*
3. *Samadov A. O'zbekiston - Qozog'iston: Azaliy do'stlik va strategik sherikchilikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi. Xalq so'zi//2018-yil 24-mart 58-son (6752), 1-b.*
4. *Mansurova H. Qozog'istonda O'zbekiston sanoatining salohiyati namoyish etildi.Xalq so'zi//2018-yil 24-mart 58-son, 1-b.*
5. *O'zA. O'zbekiston Prezidenti va Qozog'iston Respublikasi amaliy uchrashuvi. Xalq so'zi// 2020-yil 26-sentabr. 204-son, 1-b.*
6. *Samadov A. O'zbekiston - Qozog'iston: Azaliy do'stlik va strategik sherikchilikka asoslangan hamkorlikning yangi bosqichi. Xalq so'zi//2018-yil 24-mart 58-son (6752), 1-b.*